



CIVIL SOCIETY AND THE STATE: THE NATIONAL MODEL OF COOPERATION

Fazliddin Ataullayev

Independent Researcher at the Uzbekistan State World Languages University

E-mail: Fazliddin-0292@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: civil society, state, cooperation, national model, democratic reforms, public oversight, NGOs, legal framework.

Received: 08.03.26

Accepted: 09.03.26

Published: 10.03.26

Abstract: In Uzbekistan, cooperation between civil society and the state plays a crucial role in democratic reforms and social stability. This article analyzes the development of civil society institutions, public oversight, the activities of non-governmental organizations, and the mechanisms of their cooperation with the state. The advantages and existing challenges of the national model—formed on the basis of a legal framework, open dialogue platforms, and principles of social partnership—are examined. The study finds that the development of civil society in Uzbekistan promotes greater public engagement, expands citizen participation in governance, and strengthens democratic values.

FUQAROLIK JAMIYATI VA DAVLAT: O‘ZARO HAMKORLIKNING MILLIY MODELI

Fazliddin Ataullayev

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: Fazliddin-0292@mail.ru

Toshkent O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, davlat, hamkorlik, milliy model, demokratik islohotlar, jamoatchilik nazorati, nodavlat notijorat tashkilotlari, huquqiy baza.

Annotatsiya: O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati va davlat o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik demokratik islohotlar va ijtimoiy barqarorlikning muhim omili hisoblanadi. Ushbu maqolada fuqarolik institutlarining rivojlanishi, jamoatchilik nazorati, nodavlat

notijorat tashkilotlarining faoliyati hamda davlat bilan hamkorlik mexanizmlari tahlil qilinadi. Huquqiy baza, ochiq muloqot maydonlari va ijtimoiy hamkorlik tamoyillari asosida shakllanayotgan milliy modelning afzalliklari va mavjud muammolari o'rganiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining rivoji ijtimoiy faollikni oshirish, davlat boshqaruvida fuqarolarning ishtirokini kengaytirish va demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

ГРАЖДАНСКОЕ ОБЩЕСТВО И ГОСУДАРСТВО: НАЦИОНАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ

Фазлиддин Атауллаев

Независимый исследователь

Узбекского государственного университета мировых языков

E-mail: Fazliddin-0292@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: гражданское общество, государство, взаимодействие, национальная модель, демократические реформы, общественный контроль, ННО, правовая база.

Аннотация: В Узбекистане взаимодействие гражданского общества и государства является важным фактором демократических реформ и общественной стабильности. В статье анализируется развитие институтов гражданского общества, общественного контроля, деятельность негосударственных некоммерческих организаций, а также механизмы их взаимодействия с государством. Рассматриваются преимущества и существующие проблемы национальной модели, формирующейся на основе правовой базы, открытых площадок для диалога и принципов социального партнёрства. Исследование показывает, что развитие гражданского общества в Узбекистане способствует росту общественной активности, расширению участия граждан в управлении государством и укреплению демократических ценностей.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi samarali hamkorlik ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy taraqqiyot va demokratik qadriyatlarning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Mustaqil davlat sifatida O'zbekiston oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri — kuchli davlat va kuchli jamiyat o'rtasida uyg'unlikni ta'minlash, shu orqali xalq farovonligi va mamlakat barqarorligini mustahkamlashdir. Bu jarayonda fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati nafaqat davlatning ijtimoiy siyosatini qo'llab-quvvatlaydi, balki uni samarali amalga oshirishga ham xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyati zamonaviy demokratik tizimning ajralmas qismi bo'lib, u davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni muvozanatlashda muhim rol o'ynaydi. U, avvalo, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ijtimoiy tashabbuslarni ilgari surish hamda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlarini o'z ichiga oladi [1]. Tarixiy jihatdan fuqarolik jamiyati tushunchasi Yevropa ma'rifatparvarlik davrida keng tarqalgan bo'lsa-da, uning ildizlari qadimgi davlat tizimlarigacha borib taqaladi. Ushbu maqola sifat va miqdoriy tahlil metodlaridan foydalangan holda amalga oshirildi. Asosiy maqsad — O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi hamkorlikning milliy modelini aniqlash, uni xalqaro tajribalar bilan qiyoslashdir. Birinchidan, huquqiy tahlil yondashuvi qo'llanildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonun, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimli ravishda o'rganildi [2]. Bu hujjatlar fuqarolik jamiyatining huquqiy poydevorini aniqlashga imkon berdi. Ikkinchidan, komparativ tahlil metodidan foydalanildi. Germaniya, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi mamlakatlarning fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi tajribasi O'zbekiston amaliyoti bilan solishtirildi [3]. Bunda xalqaro tashkilotlar — BMT, YXHT va Jahon bankining fuqarolik jamiyati bo'yicha hisobotlari asosiy ma'lumot manbai sifatida xizmat qildi. Uchinchidan, empirik tahlil o'tkazildi. 2017–2024 yillar oralig'ida O'zbekistonda amalga oshirilgan ijtimoiy so'rovlar, ommaviy axborot vositalari monitoringi va nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyat statistikasi o'rganildi. Bu yondashuv davlat va jamiyat o'rtasidagi real hamkorlik darajasini baholashga yordam berdi.

Adabiyotlar tahlil va metodologiya. O'zbekistonda mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Konstitutsiyada belgilangan inson huquqlari va erkinliklari, nodavlat notijorat tashkilotlari, mustaqil ommaviy axborot vositalari hamda o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati bu yo'nalishdagi asosiy poydevor bo'lib xizmat qilmoqda[4]. Shu bilan birga, huquqiy baza va

ochiq muloqot muhitining yaratilishi fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kuchli fuqarolik jamiyati davlatning demokratik rivojlanishini tezlashtiradi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Masalan, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda fuqarolik jamiyati institutlari davlat siyosatini ishlab chiqishda faol ishtirok etadi, bu esa ochiq boshqaruv va samaradorlikni oshiradi. O'zbekistonda esa so'nggi yillarda olib borilayotgan "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" tamoyili asosidagi islohotlar ham aynan shu yo'nalishni mustahkamlashga qaratilgan[5].

Mazkur tadqiqot sifat va miqdoriy tahlil metodlaridan foydalangan holda amalga oshirildi. Asosiy maqsad — O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi hamkorlikning milliy modelini aniqlash, uni xalqaro tajribalar bilan qiyoslashdir. Birinchidan, huquqiy tahlil yondashuvi qo'llanildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonun, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimli ravishda o'rganildi. Bu hujjatlar fuqarolik jamiyatining huquqiy poydevorini aniqlashga imkon berdi. Ikkinchidan, komparativ tahlil metodidan foydalanildi. Germaniya, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi mamlakatlarning fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi tajribasi O'zbekiston amaliyoti bilan solishtirildi. Bunda xalqaro tashkilotlar — BMT, YXHT va Jahon bankining fuqarolik jamiyati bo'yicha hisobotlari asosiy ma'lumot manbai sifatida xizmat qildi. Uchinchidan, empirik tahlil o'tkazildi. 2017–2024 yillar oralig'ida O'zbekistonda amalga oshirilgan ijtimoiy so'rovlar, ommaviy axborot vositalari monitoringi va nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyat statistikasi o'rganildi.

Fuqarolik jamiyati masalalarini chuqur tadqiq qilgan o'zbek olimlari — Sanjar Saidov, Abdug'affor Qirg'izboyev, A. Jalilov, U. Muhammadiev, Q. Jo'rayev, Sh. Yakubov, E. Xolova, N. Shodiev — ning ilmiy ishlari tahlil qilinib, milliy modelni shakllantirish jarayoniga oid nazariy xulosalar olindi. Ularning tadqiqotlari O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslari, davlat bilan hamkorlik mexanizmlari va ijtimoiy institutlarning roli haqida muhim ma'lumotlar beradi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi hamkorlikning milliy modeli bir nechta asosiy jihatlar bilan ajralib turishini ko'rsatdi. So'nggi yillarda fuqarolik jamiyati faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi normativ-huquqiy baza sezilarli darajada kengaydi. 2017–2023 yillar oralig'ida "Davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi, shuningdek, NNTlar uchun

davlat granti va subsidiyalarini ajratish tartibi belgilandi [6]. Shu davrda Adliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda ro'yxatdan o'tgan NNTlar soni 2016-yildagi 8 200 tadan 2023-yilda 10 350 taga yetdi, ya'ni 26% o'sish qayd etildi.

Empirik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, NNTlarning eng katta qismi ijtimoiy himoya (28%), ta'lim (21%) va ekologiya (14%) sohalarida faoliyat yuritadi [7]. Qolganlari sog'liqni saqlash, madaniyat va yoshlar siyosati kabi yo'nalishlarga to'g'ri keladi. Bu esa fuqarolik jamiyati institutlari davlat tomonidan belgilangan ustuvor yo'nalishlar bilan uyg'unlikda rivojlanayotganidan dalolat beradi.

So'nggi yillarda NNT va davlat o'rtasidagi hamkorlik faqat konsultativ kengashlar doirasida emas, balki birgalikdagi ijtimoiy loyihalar orqali ham yo'lga qo'yildi. Masalan, "Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash markazi" NNTsi Adliya vazirligi va Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi bilan hamkorlikda 2022-yilda 1 200 nafar ayolga huquqiy maslahat va psixologik yordam ko'rsatgan [8].

Germaniya va Janubiy Koreya tajribasi bilan solishtirganda, O'zbekistonning milliy modeli davlat tomonidan kuchli qo'llab-quvvatlashga tayanishi bilan ajralib turadi, biroq mustaqillik darajasi bo'yicha ayrim cheklovlar mavjud [9]. Masalan, Germaniyada NNTlarning 65% mablag'i xususiy sektor va jamoatchilik xayriyalaridan shakllansa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich atigi 20% ni tashkil etadi, qolgan qismi davlat mablag'lariga bog'liq.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, fuqarolik jamiyati institutlarining mustaqilligi, moliyaviy barqarorligi va ijtimoiy tashabbuslarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha hali ham dolzarb muammolar mavjud. Ba'zi hududlarda NNTlar faoliyati markaziy organlar tomonidan tasdiqlash jarayonlarining cho'zilishi tufayli sustlashmoqda.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi hamkorlikning milliy modeli so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlangan bo'lsa-da, uning samaradorligi va barqarorligini ta'minlash bir qator omillarga bog'liq. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakatda huquqiy baza va institutsional mexanizmlar shakllangan, ammo ularning amaliyotdagi qo'llanishi ayrim hollarda byurokratik to'siqlar va resurs yetishmovchiligi sababli to'laqonli natija bermayapti.

Qonunchilik fuqarolik jamiyati institutlariga keng vakolatlar bergan bo'lsa-da, joylarda ularni amalga oshirish jarayonida tafovutlar kuzatiladi. Masalan, Adliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda NNTlarning 17% i ro'yxatga olish jarayonida ortiqcha hujjatlar talab qilinganini bildirgan. Bu holat qonunlarda belgilangan "soddalashtirilgan tartib" tamoyiliga zid keladi.

Qiyosiy tahlil natijalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekiston milliy modeli davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga tayangan holda rivojlanmoqda. Bu, bir tomondan, barqarorlikni

ta'minlasa, ikkinchi tomondan, fuqarolik jamiyati institutlarining siyosiy va tashkiliy mustaqilligini cheklashi mumkin. Masalan, Koreya Respublikasi tajribasida NNTlarning 70% mablag'i xususiy sektor va xalqaro grantlardan shakllanadi [10], bu esa ularning faoliyatini yanada erkin va tashabbuskor qiladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, fuqarolik jamiyati institutlarining faolligi poytaxt va yirik shaharlar atrofida yuqori, biroq qishloq hududlarida sezilarli darajada past. Bu esa aholining katta qismi uchun ijtimoiy tashabbus va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi. Jahon banki hisobotiga ko'ra, Toshkent shahrida har 10 ming aholiga 4,3 ta NNT to'g'ri keladi, Qoraqalpog'istonda esa bu ko'rsatkich atigi 1,2 ni tashkil etadi [11].

O'zbekiston modeli, asosan, Rossiya va Qozog'iston amaliyotiga yaqin, chunki unda davlatning tartibga soluvchi roli yuqori. Biroq Germaniya, Shvetsiya yoki Kanada kabi mamlakatlarda davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlik "partnerlik" tamoyiliga asoslanadi, bu esa mustaqillik va hisobdorlikni oshiradi [12].

Tahlildan kelib chiqib, milliy modelni takomillashtirish uchun uchta asosiy yo'nalishni belgilash mumkin:

1. Ro'yxatga olish va hisobot jarayonlarini soddalashtirish orqali NNTlarning tashkiliy mustaqilligini oshirish.
2. Xususiy sektor va xalqaro donorlarning ishtirokini kengaytirish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash.
3. Hududiy nomutanosiblikni kamaytirish uchun qishloq hududlarida ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlovchi maxsus dasturlarni joriy etish.

Bu o'zgarishlar fuqarolik jamiyatining nafaqat davlat bilan, balki jamiyatning barcha qatlamlari bilan hamkorlikdagi rolini kuchaytirishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi hamkorlikning milliy modeli o'ziga xos tarixiy, siyosiy va ijtimoiy omillarga asoslangan. Bu modelning asosiy ustunligi shundaki, u davlat va jamiyat o'rtasida tizimli muloqot mexanizmlarini yaratishga qaratilgan. So'nggi yillarda qabul qilingan qonunlar, masalan, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunga kiritilgan o'zgartirishlar va Prezident farmonlari, fuqarolik institutlarining huquqiy maqomini mustahkamladi.

Shu bilan birga, tahlillar ushbu modelda bir qator muammoli jihatlar ham mavjudligini ko'rsatadi:

- Ro'yxatga olish va hisobot topshirish jarayonida ortiqcha byurokratik talablar;
- Xususiy sektor va xalqaro donorlar ishtirokining yetarli darajada bo'lmashligi;

- Hududlar o'rtasida fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishida nomutanosiblik.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tavsiya etiladigan choralar:

1. Huquqiy tartibotlarni soddalashtirish — NNTlarni ro'yxatdan o'tkazish va hisobot topshirish jarayonini elektron tizim orqali avtomatlashtirish.
2. Moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish — xususiy biznes, jamoatchilik fondlari va xalqaro grantlarni jalb etish mexanizmlarini kengaytirish.
3. Hududiy rivojlanishni muvozanatlashtirish — qishloq hududlarida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun davlat subsidiyalari va infratuzilma loyihalarini joriy etish.
4. Davlat–jamiyat muloqotini institutsionallashtirish — muntazam “Fuqarolik jamiyati forumi” kabi platformalarni yaratish.

Xalqaro tajriba ko'rsatadiki, davlatning ortiqcha nazorat funksiyasidan hamkorlik va sheriklik tamoyiliga o'tishi fuqarolik institutlarining mustaqilligi va samaradorligini oshiradi. Shu bois O'zbekiston milliy modeli ham bosqichma-bosqich ushbu yo'nalishda isloh qilinishi lozim.

Umuman olganda, tadqiqotdan kelib chiqadigan xulosa shuki, fuqarolik jamiyati kuchli bo'lishi uchun davlat faqat qo'llab-quvvatlovchi va sharoit yaratuvchi rolni bajarishi kerak. S.Saidov ta'kidlaganlaridek: “Huquqiy-demokratik davlat barpo etishni, so'z erkinligi, inson huquqlari ustuvorligiga erishishni kuchli fuqarolik jamiyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Davlat jamiyat ustidan emas, balki jamiyat davlat institutlari ustidan nazoratni amalga oshirsagina shaxs erkinliklari to'liq ro'yobga chiqishi mumkin.”[13] Shundagina jamiyatning barcha qatlamlari o'z manfaatlarini erkin himoya qilish imkoniga ega bo'ladi.

Список использованной литературы:

1. Heywood, A. (2021). Political Theory: An Introduction (5th ed.). Macmillan International Higher Education.
2. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. (2024). NNT faoliyati bo'yicha hisobot. Toshkent.
3. OSCE. (2020). Guidelines on Freedom of Association. Vienna: Organization for Security and Co-operation in Europe.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil tahriri). Toshkent.
5. Mirziyoyev, Sh. M. (2017). Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent: O'zbekiston.

6. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. (2023). NNTlar faoliyati bo'yicha yillik hisobot. Toshkent.
7. Jahon banki. (2022). Uzbekistan Civil Society Engagement Report. Washington, DC.
8. "Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash markazi" NNT yillik ma'lumotlari. (2022). Toshkent.
9. Edwards, M. (2014). Civil Society. Polity Press.
10. Kim, S. (2020). Civil Society in Korea: Challenges and Prospects. Seoul: KIPA Press.
11. Jahon banki. (2023). Uzbekistan Civil Society Regional Access Report. Washington, DC.
12. Anheier, H.K. (2017). Nonprofit Organizations: Theory, Management, Policy. Routledge.
13. Sanjar Saidov, Fuqarolik jamiyati: tafsil va tahlil. 26-33 b.